



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

2(10)
2024





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№2(10) 2024

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



Jurnal haqida
Jurnalga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.

“Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnali

“Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo‘yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to‘g‘risidagi Nizom” talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo‘yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале «Педагогическая акмеология» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

“Pedagogical akmeology” international scientific-metodical journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the “Regulation on the Higher Attestation Commission” Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

Muassislar: “Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ “Durdona” nashriyoti,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy

Web-sayt: www.paresearchjournal.uz

Bosh muharrir:

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mas‘ul kotib:

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY‘ATI:

Muqimov Komil Muqimovich, O‘zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, O‘zR FA akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)

Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

O‘rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor

Rahimov Sharof Amonovich, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To‘rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo‘taboyev Muhammadjon To‘ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xudoyqulov Xol Jumayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farmonova Shabon Muhamadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) , dotsent

Qo‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari doktori(DSc), dotsent

Rajabov To‘xtasin Ibodovich, pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Qilichov Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori (DSc)

Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Qodirov Rashid Hamidovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Toshtemirov Oybek Abidovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU	7
Soyib Saidovich Raupov. O‘qituvchilar sha’ni va qadr-qimmatining huquqiy kafolati	7
07.00.00 - TARIX	12
Haitov Jahongir Shodmonovich, Aslonov Axmadjon Gani o‘g‘li. O‘zbekiston Mustaqilligining Dastlabki Yillarida MDH davlatlari bilan hamkorlik aloqalari tarixidan	12
Mubinov Muhammadali Akobirovich. The first studies of the history of Central Asian khanates by English-speaking authors	16
Abdullayeva Dilfuza Abduljalilovna. Buxoro hukmdorlari yozgi saroyining ta’miranish tarixi	20
Erkinova Nilufar Mirshod qizi. Buyuk ipak yo‘lida so‘g‘dliklar faoliyati tarixiga doir masalalar .	24
13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI.....	28
Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna. Qadriyat – insonni rag‘batlantiruvchi kuch	28
N.R.Ashurov, Raxmonova Mavluda Suvon qizi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	32
Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich. “Axloq” va “xulq” (axloqiylik) kategoriyalari o‘rtasidagi munosabat.....	36
Dilnoz Salimovna Ro‘ziyeva. Tibbiyot muhandisligi yo‘nalishida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.....	40
Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi, Malikova Muhabbat Boyto‘ra qizi. Kredit-modul tizimining tamoyillari va vazifalari.....	45
Шоумаров Ғайрат Бахромович, Қодиров Умарали Дўстқобилович. Миллий гвардия тизимида психологик хизматнинг айрим жиҳатлари	49
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, Qodirov Umarali Do‘stqobilovich. Milliy gvardiya tizimida psixologik xizmatning ayrim jihatleri	53
Saloxitdinova Navro‘za Murodulla qizi. “Tabiiy fanlar” darslarida steam ta’limini joriy qilish....	56
Eshchanova Gavhar Otajonovna, Abdullayeva Sanobar Ibadullayevna. Boshlang‘ich sinf o‘qish va matematika darslarida interfaol usullardan foydalanishga kompetensiyaviy yondashuv.....	61
Qurbonov Maqsudali Sobirali o‘g‘li. Optika bo‘limi bo‘yicha laboratoriya eksperimentlarining hozirgi holatini tahlil qilish	64
Zaripova Gulbahor Kamilovna. The importance of the class teacher in the education of schoolchildren as perfect personalities.....	69
To‘xtasin Rajabov Ibodovich. Musiqa darsida o‘zbek xalq folklor turkimiga kiruvchi buxoro bolalar folklor qo‘shiqlarini o‘rgatish dolzarb metodik muammo sifatida	78
Nigmatova Mavjuda Maxmudovna. Oilada tolerantlikni shakllantirish yo‘llari.....	83
Abdumannatov Abdumajit Matayevich. Alisher Navoiy ma’naviy merosining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni.....	87
Abdrimov Inoyatbek Axmedovich, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kreativ fikrlashini rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari	91
Hakimova Nargiza Supxonovna. Boshlang‘ich sinf tarbiya darslarida o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish yo‘llari	96
Sidiqova Dilora Shavkatovna. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarning mutaxassislik fanlaridan kasbiy kompetentligini takomillashtirishning metodik imkoniyatlari	100
Mamadjanova Nozimaxon Azimxodjayevna. O‘quvchilarda kommunikativlikni rivojlantirishda didaktik o‘yinlar	105
Temirova Matluba Karim qizi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida estetik tarbiyani rivojlantirishda sharq mutafakkirlari ma’naviy merosining o‘rni.....	109

Abdullayeva Dilfuza Abdujalilovna
Buxoro davlat universiteti
arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrası o'qituvchisi
dilfuza_abdullayeva2023@mail.ru

BUXORO HUKMDORLARI YOZGI SAROYINING TA'MIRLANISH TARIXI

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr 20-80-yillari davomida Sitorayi Mohi Xossa saroyining muhofazasi, ta'mirlanishi va qayta tiklanish tarixi yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston milliy arxivi hamda Buxoro viloyat davlat arxivi hujjatlari asosida obidaning ta'mirlanishidagi ishlar ko'lamini, ajratilgan mablag'lar, yodgorlik ekspluatatsiyasi kabi masalalarga oydinlik kiritilgan.

Kalit so'zlar: me'morchilik, Buxkomstaris, Sredazkomstaris, Buxoro Maxsus ilmiy-restavratsiyalash ishlab chiqarish ustaxonasi (MIRICHU), V.A.Shishkin, Usta Shirin Murodov, texnik ko'rik, ta'mirlash.

ИСТОРИЯ РЕКОНСТРУКЦИИ ЛЕТНЕГО ДВОРЦА ПРАВИТЕЛЕЙ БУХАРЫ

Аннотация. В данной статье освещена история охраны, ремонта и реставрации дворца Ситораи Мохи Хоса в 20-80-е годы XX века. Также на основании документов Национального архива Узбекистана и Бухарского областного государственного архива были выяснены такие вопросы, как объем работ по ремонту памятника, выделенные средства, эксплуатация памятника.

Ключевые слова: архитектура, Бухкомстарис, Средазкомстарис, Бухарское специальное научно-реставрационное производственное мастерская (СНРПМ), В.А.Шушкин, мастер Шушин Муродов, технический осмотр, ремонт.

THE HISTORY OF THE RECONSTRUCTION OF THE SUMMER PALACE THE RULERS OF BUKHARA

Abstract. This article highlights the history of the protection, repair and restoration of the Sitorai Mohi Khosa Palace in the 20-80s of the XX th century. Also, based on the documents of the National Archive of Uzbekistan and the Bukhara Regional State Archive, issues such as the scope of work on the repair of the monument, allocated funds, and the operation of the monument were clarified.

Keywords: architecture, Bukhkomstaris, Sredazkomstaris, Bukhara Special Scientific and Restoration Production workshop (BSSRPW), V.A.Shishkin, master Shirin Murodov, technical inspection, repair.

Kirish. Sharqning nafis me'morchilik san'ati va badiiy hunarmandchilik mahoratini o'zida uyg'unlashtirgan betakror me'moriy majmua Sitorai Mohi Xossa saroyining ta'mirlanish tarixi sovet hokimiyati yillarida bir qadar murakkab va ziddiyatli kechgan. Bu borada XX asrning 20-yillarida o'lkamizdagi me'morchilik obidalari, madaniyat va tarixiy yodgorliklarni saqlash hamda muhofaza qilish maqsadida ta'sis etilgan muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza etish Turkiston qo'mitasi (Turkkomstaris), keyinchalik, Sredazkomstaris hamda Uzkomstaris tashkilotlari faoliyati ahamiyatli bo'ldi.

Sredazkomstaris qo'mitasi tashabbusi bilan 1925-yil 4-may sanasida Sitorai Mohi Xossa saroyi davlat ro'yxatiga kiritiladi. Ayni shu kundan e'tiboran, obidada rasman ilmiy asosda o'rganish, tadqiq etish hamda muhofaza qilish ishlari amalga oshiriladi.

Asosiy qism. Sovet hokimiyati yillarida me'moriy yodgorliklardan sotsiologik tuzumning xo'jalik va maishiy ehtiyojini qondiruvchi bino-inshoot sifatida noo'rin foydalanish hollari ko'plab uchraganligi ma'lum. Mazkur siyosat Sitorai Mohi Xossa saroyini ham chetlab o'tmadi. Izlanishlarimiz natijasida, yozgi qarorgoh binosi 1932-yilga qadar ruhiy kasalliklar shifoxonasi

vazifasini bajarib kelganligi aniqlandi [1]. Keyinchalik, saroy bir vaqtda ham O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash vazirligi ham 22-sovxoza ijaraga beriladi. Biroq, xavfsizlik hamda tozalik tartiblariga rioya etilmasligi oqibatida 1933-yilda Sovhoz saroydan foydalanish huquqidan mahrum etilgan. Bu masala yuzasidan Buxkomstaris vakili V.A.Shishkin tomonidan 1933-yil 16-yanvar sanasida Uzkomstaris nomiga yo'llangan xat mavjud. Unda Sitorai Mohi Xossa saroyida joylashtirilgan 22-sovhoz idorasi binoning foydalanish qoidalariga rioya etilmasligi, bino atroflarida chiqindilar yig'ilib qolayotgani, qolaversa, yong'in xavfsizlik choralari ham ko'rilmaganligi qayd etilgan. Buning oqibatida, Haramxona binolarining birida bir necha marotaba yong'in sodir bo'lgan. Saroydagi bog' ham sovhoz tomonidan qarovsiz holda tashlab qo'yilganligi, shimoliy qismdagi binolarning yog'ochlari esa sovhoz ishchilari tomonidan o'tin sifatida foydalanilayotganligi ta'kidlanadi. Xat so'ngida "...Sizlarga saroyda joylashgan sovhoz idorasini ko'chirish orqaligina uning muhofazasini ta'minlash mumkinligini bildirib, bu ishda ko'mak berishingizni so'rayman. Zero, sovhoz bilan mahalliy idoralarga murojaatim natijasiz yakunlandi.." deyilgan [2]. V.A.Shishkinning sa'y-harakatlari natija berib, 1933-yil 9-aprel sanasida sovhoz saroydan chiqariladi. Shundan so'ng, saroy binolarida bir qadar ta'mir ishlari amalga oshirilgan. Buxkomstarisning 1933-yilgi ishlar ko'lamini 16 ta turda olib borilib, 20.637 rubl 18 tiyin mablag' yuzasidan ta'mirlash va qayta tiklash ishlari bajarilgan [3].

Mavjud ma'lumotlar, XX asrning 50-yillaridan boshlab Sitorayi Mohi Xossa saroyining ta'mirlanishi bilan bog'liq jarayonlarda ma'lum o'zgarishlar yuz berganligini ko'rsatmoqda. Chunki, mazkur obidaning O'zbekiston SSR Madaniyat vazirligi tasarrufiga o'tkazilishi uni saqlash, ta'mirlash va muhofazasi uchun mas'uliyatni bildirar edi. Endilikda, Arxitektura ishlari boshqarmasi ushbu yodgorlik ta'miri bilan bog'liq masalalarni Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda hal eta boshlagan.

Biroq obidalar ta'mirotidagi nooqilona yondashuv o'zgarishsiz qolganligi kuzatiladi. Misol uchun, Buxoro viloyati ijroiya qo'mitasi tomonidan 1952-yilda Sitorayi Mohi Xossa saroyini ta'mirlash uchun 230.000 rubl mablag' ajratish zarurligi ta'kidlanib, O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashi hamda Arxitektura ishlari boshqarmasiga bir necha marta murojaat qilingan. Arxitektura ishlari boshqarmasi boshlig'i V.A.Jahongirov bunga javoban, bino qaysi idora tasarrufida bo'lsa, yil davomida bajariladigan ta'mir rejasini o'sha idora yoki ijarador bilan kelishilishi lozimligi, ta'mirlash ishlariga aynan ular mas'ulligini ta'kidlab, so'ralgan bu mablag' yuborilmasligini aytadi. Natijada, Sitorayi Mohi Xossa saroyidagi mazkur ta'mir yili uchun rejalashtirilgan ishlar bajarilmasdan qolgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 503-sonli qaroriga muvofiq 1954-yil 19-mayda Sitorayi Mohi Xossa saroyining bir qism binolari va bog'ning asosiy qismi O'zbekiston SSR kurort-sanatoriy va dam olish uylari muassasasiga ijaraga asosida foydalanishga beriladi [4]. Arxitektura ishlari boshqarmasining Yodgorliklar muhofazasi bo'limi katta muhandisi N.N.Flavitskiyning 1954-yildagi hisobotida keltirilgan bayon mazmuni bu xususda rasmiy ma'lumotlarni taqdim etadi. N.N.Flavitskiy Buxoro shahrida 1954-yilning 22-fevral va 7-mart kunlarida bo'lib, saroyning Butunittifoq kasaba uyushmalarining tasarrufidagi dam olish uyiga berish komissiyasi a'zosi sifatida ish yuritadi. Mutaxassis tomonidan ijaraga uchun ajratilgan binolar va bog'ning holati rasmiylashtirilgan. Shuningdek, hududiy vakil S.Sharipov, texnik xodim A.Palagin, ta'mirlov ishlari idora (kantora)sining Buxoro uchastkasi boshlig'i Y.Raykovlar ishtirokida masala yuzasidan tegishli dalolatnoma tuzilgan.

Ma'lumotlar, Sitorayi Mohi Xossa binolari o'zboshimchalik bilan buzilib, qayta qurila boshlanishi, noyob o'simliklarga ega bog' dam oluvchilar ixtiyoriga berilib, payxon qilinishiga olib kelganligidan guvohlik beradi. Qolaversa, O'zbekiston faunasining kamyob namunalarini bo'lgan daraxtlar kesilib, o'rniga manzarali rus daraxtlarining ko'chatlari ekilishi, saroyning haram binosi, kanizakxonasi, "Xonayi hasht" ko'shki kabi binolari esa uzoq yillar mobaynida oshxonasi, yotoqxona vazifasida foydalanilganligi oqibatida, saroy va undagi bog'ning asl qiyofasiga tiklab bo'lmas shikast etkaziladi.

Xalqimiz madaniyatining bir bo'laki bo'lgan me'moriy obidalarga bo'lgan bunday munosabat Buxoro ilmiy jamoatchilik vakillarining e'tiboridan chetda qolmagan. Buxoro tarix va o'lkashunoslik muzeyining direktori M.Yoqubov 1956-yil 9-mayda O'zbekiston kompartiyasi Markaziy ijroiya qo'mitasi kotibi R.Melnikovga "Keyingi vaqtda dam olish uyining direktori o'rtoq Abduraimov va sog'liqni saqlash vazirligi rahbarlari tomonidan Sitorai Mohi Xossa muzeyini tugatish va uning binolarini dam olish uyi ixtiyoriga o'tkazish uchun izchil harakat olib borilmoqda. Saroyga tegishli

22 *binolar va ayvonlar Vazirlar kengashi ruxsatisiz, o'zboshimchalik bilan buzilib, talon-taroj qilinmoqda"* mazmunidagi murojaat yo'llaydi.

Muzeyning Sitorayi Mohi Xossadagi filiali direktori K.Em ham Madaniyat vaziri A.Qo'chqorov nomiga shikoyat xati yo'llab, dam olish uyi ma'muriyati Saroydagi noyob me'moriy binolarni buzishga kirishgani, buni to'xtatish uchun yordamga muhtoj ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu sa'y-harakatlar natija berib, Sitorai Mohi Xossa saroy majmuasining 9 ta zalida (umumiy maydoni 565 kvm.ni tashkil etgan) Xalq ijodiyoti muzey ko'rgazmasini saqlab qolishga erishiladi [5].

1954-yilda tasdiqlangan ta'mirlash ishlari smetasiga muvofiq, Sitorai Mohi Xossada 1955-yil uchun ta'mirlanishi rejalashtirilgan Abdulahadxon binosi zalidagi ishlarga 43.728 rubl, Oq zal ("Xonai safed") ta'miriga esa 65.010 rubl miqdorida mablag' ajratilgan. 1956-yil esa Sitorai Mohi Xossa saroyi binolarida qayta tiklash va ta'mirlash amaliyoti bajarilgani, shu maqsadda 71.000 rubl miqdordagi mablag' sarflanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, Buxoro viloyat sog'liqni saqlash bo'limi boshlig'i A.K.Kamolovning 1957-yil 16-aprelda Binokorlik va arxitektura ishlari davlat qo'mitasi rahbari A.B.Babaxanov, Vazirlar Kengashi raisi S.K.Kamalov, Buxoro viloyat ijroiya qo'mitasi raisi I.N.Niyazmetovlarga yo'llagan xati asosida yodgorlik binolarining etarlicha ta'mirlanmay, vayrona holga kelib qolganligi to'g'risida xulosaga kelish mumkin. Unda qayd etilishicha, saroy binolarida joylashtirilgan sil kasalligi sanatoriyasi bo'lim-palatalari xona devorlarining o'ta abgor holatda bo'lgani bemorlar sog'lig'iga xavf solib kelgan. Hatto, 1954-yilda o'pka kasalliklari bo'limi joylashtirilgan binodagi uch xonada o'pirilish sodir bo'lgan, natijada, bemor bolalar saroy yaqinidagi maktab binosiga ko'chirilgan.

A.K.Kamolov murojaati natija berib, 1957-yil 14-mayda O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining Binokorlik va arxitektura ishlari davlat qo'mitasi tomonidan komissiya tuzilishiga erishiladi. Sitorayi Mohi Xossa saroyidagi amir Muzaffarxon hamda Abdulahadxon zallarining texnik holati, muhofazasi va zaruriy ta'mirlash ishlarini tashkil etilishi bilan tanishish ushbu komissiyaning asosiy vazifasi etib belgilangan. Binokorlik va arxitektura ishlari davlat qo'mitasi rahbari A.B.Babaxanov imzosi bilan rasmiylashtirilgan 95-sonli buyruqqa muvofiq komissiya L.I.Rempel, V.A.Nilson, A.I.Frenkel va Buxoro bo'yicha etakchi arxitektor K.S.Kryukov kabi mutaxassislardan tuzilganligi ma'lum bo'ldi [6]. Komissiya tekshiruvi natijasida berilgan xulosalarda ko'rsatilgan moliyaviy, qurilish xomashyolari hamda ishlar ko'lami yo'nalishidagi kamchiliklar bartaraf etilib, ta'mir ishlari qisman ijobiy yakunlanadi. Vayrona holatdagi binolar, xususan, amir Abdulahadxon xonasining buzilishi uchun ham ruxsat olinib, 1962-yilda buzish ishlari yakunlanadi. E'tiborlisi, binolardan olingan qurilish materiallarini Buxoro Maxsus ilmiy-ta'mirlash ishlab chiqarish ustaxonasi (MITICHU) ixtiyoriga o'tkazish orqali ulardan Sitorai Mohi Xossadagi otxona hovlisi va Arkdagi Nog'oraxona binosini ta'mirlash maqsadida foydalanilgan.

Buxorodagi me'moriy yodgorliklar ta'miri hamda muhofazasi uchun 1959-yilda davlat byudjetidan 1 mln 600.000 rubl ajratilib, shundan 127.000 rubl summa Sitorayi Mohi Xossa saroyini ta'mirlash maqsadiga yo'naltirilgan. 1961-yil boshlarida Respublika Maxsus ilmiy ta'mirlash va loyihalash byurosi (MITLB) tomonidan Sitorai Mohi Xossa saroyida Oq zalning fasad qismi hamda devorlarining ta'miri, tom qismi uchun dekorativ guldonlar tayyorlash va o'rnatish hamda derazalarni ranglash kabi ishlar ko'lami belgilanib, byudjetdan 5000 rubl ajratiladi [7].

1964-yil 1-oktabr holatidagi ta'mir jarayoni binoning Oq zaldagi ta'mirlash ishlaridan boshqa barcha rejalashtirilgan ishlar amalga oshirilganini ko'rsatdi. Buxoro MITICHU rahbari S.Sharipov tomonidan berilgan izohga ko'ra, belgilangan ta'mir jarayoni sentabr oyida amalga oshirila boshlanib, ish qurilish lesalarni o'rnatish bosqichiga etganda sayyoh-turistlar tashrifi munosabati bilan shahar Ijroqo'mi xonani bo'shatishni talab qiladi. Shu tariqa, belgilangan ishlar kechiktirilib bajarilgan.

O'tgan asrning 60-70-yillari mobaynida Sitorai Mohi Xossa saroyini ta'mirlash ishlarida deyarli muntazamlilik, uzluksizlik kuzatiladi. Jumladan, Buxoro MITICHU tomonidan 1967-ta'mir yilida maxsus mablag'lar hisobidan ajratilgan 10.000 rubl yuzasidan qayta tiklash ishlari bajarilgan [8]. 1969-yilda davlat byudjetidan ajratilgan 15.000 rubl miqdorida, 1970-yilda ham maxsus mablag'lardan 10.000 rubl ajratilib, Oq zaldagi ganch o'ymakorlik namunalari hamda ayvon qismidagi badiiy bezaklarda qisman restavratsiya ishlari, zal ayvoniga tutash devorda esa konstruktiv-mustahkamlash amalga oshiriladi. 1971-yilda davlat byudjetidan 9.600 rubl sarflanib, kirish yo'lagi va Oq zalga tutash shimoliy ayvon qismida ta'mirlash ishlari yakunlangan hamda Haramxona binosida qayta tiklash ishlari bajarilgan.

1973-yilda usta-me'morlar I.I.Dudarev hamda O.Bobomurodov tomonidan Oq zaldagi ganch uymakorlik naqshlarini tiklash ishlari amalga oshirilgan, ta'mir ishlari esa Buxoro MITICHU rahbarligida, 25.000 rubl mablag' hisobidan olib borilgan. 1974-yilda ham Oq zaldagi ishlar davom ettirilib, ta'mirchilar I.N.Kim va I.I.Dudaryev tomonidan qayta bezalgan. 1976-yilgi zilziladan keyin ham bu zal restavratsiya qilinib, kengaytirilgan.

Iqtisodiy hujjatlarga ko'ra, 1975-yilda Sitorayi Mohi Xossa saroyida 20.000 rubl miqdorida ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan. 1976-yilda sodir bo'lgan zilzila oqibatida zarar etgan obidalarga Buxoro MITICHU tomonidan 830.000 rubl miqdorida ishlar amalga oshirilgan bo'lib, jami o'n oltita me'moriy obida ta'mirlangan. Sitorayi Mohi Xossa saroyi ham shular jumlasidan edi. Xususan, saroyning tashqi devorlarida qayta tiklash ishlari bajarilgan. Ta'mir jarayoniga oid smeta hujjatlaridan, saroydagi ishlar ko'lami uchun davlat byudjetidan 15.000 rubl hamda jalb kilingan mablag'lar tushumidan ham 15.000 rubl miqdorida mablag' ajratilganligi ma'lum bo'ldi. Buxoro viloyat madaniyat boshqarmasining 1977-yilga doir hisobot hujjatida ham joriy yilda Sitorai Mohi Xossa saroyida ajratilgan 50.000 rubl mablag' yuzasidan qisman ta'mirlash va qayta tiklash ishlari bajarilgani to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Buxoro me'moriy obidalaridagi ta'mir ishlari 1983-yildan e'tiboran, Buxoro davlat tarixiy-me'moriy muzeyi tarkibida Yodgorliklarni ro'yxatga olish, saqlash va ta'mirlash bo'limi sifatida qayta tashkil etilgan muassasa tomonidan amalga oshirila boshlanadi. Jumladan, Sitorayi Mohi Xossa saroyidagi ta'mirlash, qayta tiklash va muhofaza jarayoni mazkur bo'lim nazoratiga olinadi. 1988-yilda esa saroyni ta'mirlash va uni obodonlashtirish loyihasi, shuningdek, sarf-xarajatlar smetasi ham tayyorlangan, biroq, mablag' etishmasligi muammosi sababli loyiha amalga oshirilmadi.

Xulosa o'rnida, yodgorliklar muhofazasiga mas'ul tashkilot mutasaddilarining yuqori idoralarga yo'llagan murojaatlarini o'rganish orqali hukmdor qarorgohlari foydalanuvidagi nooqilona yondashuv ham ularning vayrona holga kelib qolishini tezlashtirgan omil bo'lganligini ta'kidlash o'rinli. 22-sovxozi idorasi ixtiyoriga berilgan Sitorai Mohi Xossa saroy binolaridan foydalanish qoidalariga, xavfsizlik hamda tozalik tartiblariga rioya etilmagani, yong'in xavfsizlik choralari ko'rilmaganligi, ba'zi hollarda saroydagi bino yog'ochlari o'tin sifatida foydalanilgani xususidagi Buxkomstaris vakili V.A.Shishkin murojaati, shuningdek, Buxoro tarix va o'lkashunoslik muzeyining direktori M. Yoqubov hamda Muzeyning Sitorai Mohi Xossadagi filiali mudiri K.Em tomonidan Butunittifoq kasaba uyushmalarining tasarrufidagi dam olish uyi ma'muriyatining Saroydagi noyob me'moriy binolarni buzishga kirishgani ta'kidlanadi. Yodgorliklar muhofazasi va ulardan foydalanishni to'g'ri tashkil etishga qaratilgan bu kabi sa'y-harakatlar natija berib, sovxozning ijara shartnomasi bekor qilingani, Sitorai Mohi Xossa - Xalq ijodiyoti muzey binosining saqlab qolishga erishilgani ijobiy holdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy arxivi (keyingi o'rinlarda – O'zbekiston MA), R-2296-fond, 1-ro'yxat, 44-yig'majild, 27-varaq.
2. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 46-yig'majild, 115-116-varaqlar.
3. Buxoro viloyat davlat arxivi(keyingi o'rinlarda – Buxoro VDA), 836-jamg'arma, 1-ro'yxat, 12-yig'majild, 3-4-varaqlar.
4. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 419-yig'majild, 17-varaq.
5. Jumayev Q. Sitorayi Mohi Xossa. – Toshkent: Fan, 2005. – B.34-35.
6. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 1-ro'yxat, 393-yig'majild, 265-varaq.
7. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 2-ro'yxat, 65-yig'majild, 42-varaq.
8. O'zbekiston MA, R-2296-fond, 6-ro'yxat, 9-yig'majild, 5-varaq.